

**YOSH AVLOD HAMDA YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA HADISLARNING  
O'RNI**

**Umarova Sevara Ravshanjon qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи o'qituvchisi*

**Xalilova Diyora Sobirovna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Oliy hamshiralik ishi” yo'naliishi 3-bosqich 303-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola har bir yosh avlodni, jamiyatni tarbiya qilishda, ma'naviyatini yuksaltirishda hadislarning o'rni qanchalik muhimligiga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *yosh avlod, talim, tarbiya, jamiyat, hadis, oila, psixologik muhit, vaziyatlar, ma'naviyat, pedagogika, axloq, ijtimoiylik, ong, huquq, xulq-atvor.*

**Аннотация:** Данная статья посвящена важности хадисов в поднятии морального духа каждого молодого поколения и общества.

**Ключевые слова:** молодое поколение, образование, воспитание, общество, хадис, семья, психологическая среда, ситуации, духовность, педагогика, нравственность, социальность, сознание, право, поведение.

Har bir shaxs yoki yosh avlodni tarbiya qilishda eng avvalo oilaning, oilaviy muhitning, tashqi muhitning bundan tashqari ota-bobolarimiz aytgan, ta'kidlagan o'gitlar hamda hadislarimizning ahamiyatga katta. Bu hadislar-u o'gitlar yosh avlodni tarbiya qilishda asosiy ulkan hazina desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Jamiyatni rivojlanishi, jahon miqyosiga davlatimizni olib chiqishi uchun albatta yosh avlodlar eng katta kuch hisoblanadi. Shu sababli ham har bir tug'ilgan farzandni qadrashimiz, kamol toptirishimiz hamda yaxshi ta'lim-tarbiya berishimiz zarur. Shaxs kamolotida shaxs kategoriyalari ham muhim ahamiyatga ega. Bularga: Shaxs – pedagogik va psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim –talabalarni nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo`naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.(Olingan bilimlarni o'zida aks ettira olishi)

Ko`nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o`zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko`nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o`zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ammo, hayotga yangcha siyosiy va iqtisodiy nuqati nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko`rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mustaqil O`zbekiston Respublikasida ayni vaqtida yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o`z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg`otish, yosh avlodga po'z dini qadryatlarini tanitish hamda yetuk allomalar hadislarini singdirish.

b) yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

v) umuminsoniy axloq me'yordari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, alodatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, yoshlarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) hamda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg`usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg`usini shakllantirish, o`zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg`usini qaror toptirish;

z) mustaqil davlat – O`zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to`g`ri va xolisona baho berishga o`rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o`rgatish va boshqalar.

Shu kabi mavzularda yoshlarni tarbiya qilishda ota onalar hamda o'qituvchi murabbiylarimizning o'rni beqiyosdir.

Chunonchi, bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: “Haqiqatdan ham o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga bag'shlagan o'qituvchi va murabbiylar mehnati,

jasorati har qanday yuksak baholarga munosibdir...” bu haqda fikr yuritar ekanmiz Behbudiyning ”Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o’rgating” degan so’zlari beixtiyor yodimizga tushadi.

Islom dini insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi ta’limotdir. Shu sababli Qur’oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat’iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ’ib etilgan.

Islom dini ta’limoti asoslarini yorituvchi Qur’on Karimdan keyingi asosiy manba Hadis hisoblanadi. Hadis arab tilidan olingan bo’lib, xabar, gap, yangilik degan ma’nolarni anglatadi, mazmunan esa Muhammad (sav) aytgan so’zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to’g’risidagi rivoyat. Hadis 2 turga — Hadisi qudsiy (ma’nosi Alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo’lgan Hadislar) va Hadisi nabaviyga bo’linadi. Hadislar e’tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo’linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

Hadislarda insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o’z bilimi bilan atrofidagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs. bo’lib yetishishida muhit, omil bilim deb ko’rsatiladi. «Tolibi ilm qilish farzdir, Tolibi ilmgaga har bir narsa istig’for aytadi, hatto dengizdagi “baliqlar ham». Bilimsizlik kishilarni nodonlikka olib keladi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat, razolat hukmronlik qiladi» deyiladi.” «Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir», hadisida ilmnin takrorlab borish, faqat ilm olishga ishtiyoqmand kishilargagina ilm berish ta’kidlanadi. Shuningdek, hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o’tkir zehnli, zukko, xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta’kidlanadi va «Ilmu hunarni Xitoyda bo’lsa ham borib o’rganinglar» - deb da’vat etiladi. Shunga ko’ra, «Olim bo’l (ilm beruvchi bo’l) yoki ilm o’rganuvchi bo’l yoki tinglovchi bo’l, yoki ilmgaga va ilm ahliga muhabbatli bo’l. Beshinchisi bo’lma, halok bo’lasan», deyiladi.

Hadis ilmida fikr aytish bilan kifoyalanmay yosh avlodni insoniyatning tuyg’ulariga, hissiyotlariga ham ta’sir etsihiga e’tibor qaratiladi. Hissiyot va ruhiyatni tarbiyalsh bilan bir qatorda bolalarning idroki, dunyoqarashi, tafakkurini rivojlantirish, ijtimoiy turmush, jamiyatda bo’layotgan voqeа va hodisalarga nisbatan insoniyat qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafratni uyg’otishga qaratilgan.

Ma’lumki, inson kamoloti bevosita uning salomatligi bilan bog’liqdir. Zero, sog’lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi yo’lida faoliyat ko’rsatuvchi kishilar bo’lib yetishadi. Hadislar, umuman, Islom ta’limotida tozalik va poklik, shu jumladan, ruhiy va jismoniy poklikka katta e’tibor beriladi. “Haq taolo o’zi pok, poklikni yaxshi ko’radi. O’zi toza, tozalikni yaxshi ko’radi. O’zi oliyhimmatdir, oliyhimmatlikni yaxshi ko’radi. O’zi ochiq ko’ngil, ochiq ko’ngillikni yaxshi ko’radi. Eshiklarning oldini pokiza tutinglar” .

Xulosa o’rnida shuni takidlab o’tish joizki, har bir yosh avlodni tarbiya qilib, kamol toptirishda, komil inson qilib voyaga yetkazishda hadislar ilmi hamda din ilmi juda muhim o’rinni egallaydi. Hadis ilmi ko’rib turganingizdek inson kamoloti uchun zarur bo’lgan barcha ilmlarni berishda yetakchi hisoblanadi. Shu jumladan, barcha ota-onalar hamda

ustoz murabbiylardan farzandlaringiz hamda talaba yoshlarni tarbiyalashda hadis ilmidan foydalanishlarini so'rab qolgan bo'lar edim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Ахмедова, М., Аскарова, Н., & Анварова, Д. (2022). Замонавий таълим тизимида касбий коммуникатив компетентлийкнинг моҳияти ва тузилмаси. Общество и инновации, 3(2/S), 47-51.
2. Umarova, S. (2021). Yoshlarda hadislар yordamida sabr toqatlilik hususiyatini shakillantirish.
3. Мелибаева, Р. (2021). Тиббий психодиагностиканинг методологик муаммолари.
4. Мелибаева, Р. Н. (2018). из истории вопроса экспериментального исследования мышления в трудах психологов советского периода. in international scientific review of the problems and prospects of modern science and education (pp. 125-127).
5. Мелибаева, Р., & Абдиназарова, И. (2020). Тиббий психодиагностика: муаммо, мулоҳаза ва ечимлар.
6. Мелибаева, Р. (2020). О диалектическом характере процесса становления личности студента.
7. Нарметова, Ю. (2022). Психосоматик беморларда эмоционал–невротик бузилишлари ва уларга психологик ёрдам кўрсатишнинг ўзига хослиги. Общество и инновации, 3(2), 64-71.
8. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis, 1-jild. Al-Jome as-sahih (Ishonarli to'plam). Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.
9. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. Тошкент, «Камалак». 1991. 51-бет.
10. Umarova, S. (2022). Таълимни рақамлаштиришда креатив компетенцияларни ривожлантириш (Doctoral dissertation, Узбекистан Ташкент).
11. Umarova Sevara Ravshanjon qizi, Ibodov Shahzod Abdunasimovich, KONFLIKTOLOGIYADA TANA ZABONI , Scientific Impulse: Vol. 1 No. 2 (2022): Научный Импульс
12. Umarova Sevara Ravshanjon qizi, Xalilova Diyora Sobirovna, KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHDA HADISLARNING AHAMIYATI , Scientific Impulse: Vol. 1 No. 3 (2022): Научный Импульс
13. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis, 1-jild. Al-Jome as-sahih (Ishonarli to'plam). Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.
14. Mirzayeva T, Safarov O, O'rareva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T. Aloqachi nashriyoti, 2008.